

Mavzu: Ona Vatan aziz

Darsning maqsadi:

- a) Ta'limiy maqsad: o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish; o'z fikrini aniq, izchillikda bayon etish ko'nikmalarini shakllantirish
- b) Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarda vatanni sevish, uni ardoqlash, himoya qilish ruhida tarbiyalash;

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi

Darsning usuli: Interfaol metodlar

Darsning jihozi: Darsga oid ko'rgazmalar, tarqatma materiallar, boshqotirmalar

Darsning shiori: Vatanni sevmoq iymondandir

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:


- a) Salomlashish b) Davomatni aniqlash
- c) O'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

O'tgan mavzuni mustahkamlash:

O'tilgan mavzular savol-javob orqali mustahkamlanadi:

1. Mehnatsevar kishi deganda qanday kishini tushunasiz?
2. Mehnat haqidagi maqollardan ayting.
3. "Odobli bola elga manzur" maqolini tushuntirib bering.
4. Odobli bolaning fazilatlarini ayting.
5. Mehmon kutish odobini tushuntiring.

Klaster usulida tasvirlangan maqollarning davomini o'qing.



Yangi mavzuning bayoni:



Darsni kirish suhbatini boshlaydi:

O'qituvchi: Biz Vatan deganda nimani tushunamiz?

O'quvchilar: Tug'ilib o'sgan joyimizni.

O'qituvchi: Tug'ilib o'sgan joyimizning nomini ayting.

O'quvchilar: O'zbekiston

O'qituvchi: Vatanni biz kimga qiyoslaymiz?

O'quvchilar: Onaga

O'qituvchi: Onamizni qanchalik yaxshi ko'rsak, Vatanni biz shunchalik yaxshi ko'ramiz. Onamiz biz uchun qayg'ursa, Vatan ham biz uchun shunchalik qayg'uradi. Men sizlarga Zafar Diyor qalamiga mansub Vatanimiz O'zbekiston haqidagi "Serquyosh o'lka" she'rini ifodali o'qib beraman.

Do'stlar, mening yurtimni
O'zbekiston deydilar,
Dong'i tutgan dunyoni
Bog'u bo'ston deydilar.
Osmoni keng, beg'ubor,
Shifobaxshdir havosi,
Dimog'larni chog' etar
Uning shodon navosi.
Bog'larida mevalar
Sharbat bo'lib pishadi,
Uzum, olma, behilar
Yo'lingizga tushadi.
Shunga ko'ra deydilar:
Serquyosh O'zbekiston,
Baxtiyor bu zamonda
Yashnagan bog'u bo'ston.

O'qituvchi: Vatanni sevish, ardoqlash, uni himoyasida turish har birimizning burchimizdir. Hadislarda ham "Vatanni sevmoq iymondandur", - deb bejizga aytilmagan. Hammamiz bilamizki, Vatan tinchligi, uning ozodligi uchun qadimdan ota-bobolarimiz kurashib, o'z jonlarini fido qilganlar. Qani, biz kimlarni bilamiz?

O'quvchilar: Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amur Temur.

O'qituvchi: Biz bu bobolarimiz bilan faxrlanib yashashimiz kerak. Ularning nomlarini doimo eslab unutmasligimiz lozim. Qani kim menga Vatan haqidagi maqollardan aytadi?

1- o'quvchi: Vatanning tinch-sen tinch.

2-o'quvchi: O'zga yurtida shoh bo'lguncha,

O'z yurtida gado bo'l.

3-o'quvchi: Yeridan ayrilgan, yetti yil yig'lar,

Elidan ayrilgan o'guncha yig'lar.

4-o'quvchi: Ona yurtida omon bo'lsa,


Rangi ro'ying somon bo'lmas.

Mustahkamlash:

O'quvchilar 2-guruhga bo'linadilar va har bir guruh boshqotirmani yechadi.


1-guruhga: Rasmlarning bosh harflarini qo'yib, mavzuga oid so'zni o'qing.

--	--	--



2-guruhga: Rasmlarning bosh harflarini qo'yib, mavzuga oid so'zni o'qing.

--	--	--	--



2. Har bir guruh boshqotirmalarni yechib bo'lganlaridan so'ng, test savollarini yechadilar.

1-guruhga:

1. Tug'ilib o'sgan joyni nima deb ataymiz?

a. Vatan b. Maskan c. joy

2. Vatanimizning nomini belgilang.

a. Qozog'iston b. Turkmaniston c. O'zbekiston

3. Vatanni biz kimga qiyoslaymiz?

a. xolaga b. Onaga c. otaga

2-guruhga:

1. Vatan haqidagi maqolni belgilang.
 - a. Vatanning tinch-sen tinch.
 - b. Mehnat-mehnatning tagi rohat
 - c. Ona bilan bola, gul bilan lola.
2. Vatanni sevish kimning burch ekanligini belgilang.
 - a. hammaning b. Onaning c. o'quvchilarning
3. Siz Vatanni sevishingizni qanday ko'rsata olasiz?
 - a. a'lo o'qish bilan b. mehnat qilish bilan
 - c. barcha javoblar to'g'ri.

Darsda faol qatnashgan guruh va o'quvchilar e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa: Vatan haqidagi maqollardan o'rganib kelish

Tayyorladi:

**QVPKQTMOI Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti
kafedrasi o'qituvchisi L. Berdiyeva**